

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-5

Turli yosh guruqlarida MTT da sayrlarni tashkil qilishning afzalligi

AHMEDOV TEMURJON YUSUBBAYEVICH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI

“MAKTABGACHA TA’LIM METODIKASI” O‘QITUVCHISI

SAPAROVA NARGIZA YULDASHBAYEVNA

YANGIBOZOR PEDAGOGIKA KOLLEJINING

MAXSUS FAN O‘QITUVCHISI

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sayrlarni tashkil qilish hamda sayrlar davomida balolarni tabiiy materiallar, kundalik tabiat hodisalari hamda o‘simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish to‘g‘risida asosiy tushunchalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tabiiy materiallar, ekskursiya, individual ish olib borish, o‘simliklar.

**Аннотация:** В данной научной статье изложены основные понятия организации экскурсий в дошкольных образовательных организациях и знакомства детей с природными материалами, бытовыми явлениями природы, растениями и животными во время экскурсий.

**Ключевые слова:** природные материалы, экскурсия, индивидуальная работа, растения.

**Abstract:** This scientific article provides the basic concepts of organizing excursions in preschool educational organizations and introducing children to natural materials, everyday natural phenomena, and plants and animals during excursions.

**Key words:** natural materials, excursion, individual work, plants.

Mashg‘ulot va ekskursiyalardagi kuzatishlarni kundalik hayotdagi amalga oshirishning maqbul shakllaridan biri sayrlarni tashkil etish bilan uzzviy aloqada olib boriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun sayrlardan keng foydalilaniladi. Sayrlar vaqtida tarbiyachi bolalar tasavvurining shakllanishi uchun uzoq muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bolalarni qorning erishi, kurtaklarning bo‘rtishi, maysaning paydo bo‘lishi va shu kabilalar bilan

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-5

tanishtiriladi. Sayrlarda tabiiy materiallar — qum, loy, suv, muz, barg va shu kabilar bilan xilma-xil o‘yinlarni tashkil etish mumkin: maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi tajribasi yig‘iladi, ular tabiat hodisalarini barcha aloqa va munosabatlarda tabiiy sharoitlarda ko‘radilar. Sayrlar bolalarga katta quvonch, tabiat bilan munosabatda bo‘lish esa lazzat baxsh etadi.

Tabiat hodisalarini kundalik kuzatishlar tasodifiy bo‘lmasligi lozim. Ularni tarbiyachi oldindan puxta o‘ylab qo‘yadi. Bunda bolalarni uyushtirishni xilma-xil shakllari (yalpi, guruh bo‘lib, yakka tartib) dan foydalanish zarur. Sayrlarda kuzatishlarni guruxlar bilan umumiylashishdan bolalarni aniq mavsumiy o‘zgarishlar, kattalarning mehnati bilan tanishtirishda foydalaniлади. Kuzatishlar ozchilik bolalar bilan ham o‘tkazilishi mumkin (gullab turgan o‘simliklarni, unib chiqqan maysalarni, hasharotlarni va shu kabilarni tomosha qilish).

Sayrlarda individual ish ham olib boriladi. Sayrlar vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Bolalar o‘simliklarni sug‘oradilar, oziqlantiradilar, yerni yumshatadilar, Bu ish ertalab va kechqurunga rejalashtiriladi. Ekinzor va gulzordagi ish uchun bolalarni mashg‘ulot maqsadiga ko‘ra uyushtiriladi. Ba’zi topshiriqlarni bolalar birgalikda bajara oladilar (ekish, sepish, hosilni to‘plash). Boshqalarini (erni tayyorlash, o‘simliklarni sug‘orish, yerni yumshatish, quruq barglarni kesib tashlash, urug‘larini to‘plash va shu kabilarni) kichik-kichik guruhlarga bo‘linib bajarilgany ma’qul. Katta guruhlarda bahor va yoz oylarida uchastkalarda navbatchilikni tashkil etish mumkin. Katta va maktabga tayyorlov guruhalining bolalari sayrlardagi kuzatishlarni tabiat kalendarida aks ettiradilar. Ular bu kalendarda jonsiz tabiat, hayvonlar, o‘simliklar hayotidagi yorqin mavsumiy o‘zgarishlarni, kishilarning mehnatlarini aks ettiradilar.

O‘rta guruhdan boshlab, maqsadli sayrlar o‘tkaziladi (maktabgacha ta’lim tashkilotidan chetga — suv havzasi, o‘tloq, yaylov va shu kabilarga borish). Bu sayrlarda bolalarni yorqin tabiat hodisalari (qora qarg‘alarning ini, muz ko‘chishi) bilan tanishtiriladi.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-5

Sayrlar vaqtida maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda O‘zbekistonidagi (issiqsevar, issiqliq bardoshli) o‘simliklarning o‘ziga xos hayot sharoiti va ularning mahalliy sharoitga moslashishi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish zarur.

Tabiatdagi bog‘liqliklar haqida quyidagi tushunchani shakllantirish zarur:

- O‘simliklarning o‘sish va rivojlanishi muayyan tabiat omillariga va ularni to‘g‘ri parvarish qilishga bog‘liqligi. Odam uchun o‘simliklarning foydasi.
- «Odam—o‘simlik—hayvonot» tizimida hayvonlar, o‘simliklar hayotining o‘zaro bog‘liqligi haqida ba’zi elementar ma’lumotlar. Bu tushunchalariti shakllantirish uchun quyidagi savollar tizimidan foydalanish mumkin:

O‘simlik hayvonlarga qanday foyda keltiradi?

Hayvon o‘simliklarga qanday foyda keltiradi?

O‘simlik odamga qanday foyda keltiradi?

Odam o‘simlikka qanday foyda keltiradi?

Bu tabiat bilan tanishtirish mazmuniga tirik tabiatda mavjud bo‘lgan ba’zi bog‘liqliklar haqidagi bilim va tushunchalar kiradi. Ta’lim berishda, tirik tabiatda mavjud bo‘lgan o‘zaro bog‘liqlik haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar bevosita kuzatishlar yo‘li bilan olib borilganda ko‘rgazmali bo‘lishga alohida e’tibor berish kerak. Hayvonot olami bilan va odam bilan o‘simliklarning bog‘liqligiga katta ahamiyat berish lozim. Masalan, asalarilar hayoti o‘simliklar olami bilan bog‘liq. Asalarilar gullaridan faqat oziq olibgina qolmay, balki ular shu bilan birga o‘simliklarga foyda, ham keltiradi, ular o‘simlikni changlantiradi, natijada o‘simlikning hosildorligi oshadi. Bundan tashqari, ular o‘simlik orqali va o‘zining shaxsiy asal yetishtirishi orqali odamga foyda keltiradi. Boshqa misol: shira o‘simlikni yeydi, xonqizi va chumolilar esa shira lichinkalari bilan oziqlanib o‘simliklarni zararkunandalardan saqlab qoladi hamda o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Ipak qurtining hayoti o‘simlik va odam bilan chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, tabiatda hech bir narsa bekordan-bekorga yashamaydi, hammasi o‘zaro aloqada va bir-biriga bog‘liq bo‘ladi, degan tushunchani bolalar ongiga yetkazish mumkin.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-5

G‘o‘za ustida kuzatish olib borayotganda o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishiga yordam beruvchi kishi mehnati va tabiat omillarining axamiyatini ko‘rsatish bilan birga ular e’tiborini yana shunga jalg etish kerakki, odam mehnati va o‘lkamizning muayyan iqlim sharoitisiz paxta yaxshi unmas edi hamda kungildagi yuqori xosilni bermagan bo‘lardi, g‘o‘za qimmatbaho xomashyo bergani uchun, odam uni parvarish qiladn, xomashyo odamga ovqat uchun, kiyim-bosh uchun, turmush uchun zarur. Butun ish davomida bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berish zarur, bu ularning xar tomonlama rivojlanishlariga yordam beradi. Bolalarni arzimas hodisalarни chetlab o‘tmaslikka o‘rgatish lozim, chunki bular bolalar uchun keyinchalik katta ahamiyatga egadir. Shu bilan bir vaqtida lug‘atni boyitish, bolalarda so‘zlashuv nutqini, ko‘rilgan va eshitganlar haqida to‘g‘ri so‘zlab berish malaka-ko‘nikmasini rivojlantirish vazifalari hal etilgan bo‘ladi, bular tarbiyachining maqsadga qaratilgan ishlari natijasida shakllanadi.

Asosiy e’tibor sensor, emotsiyal jrayonga qaratiladi, ular tashqi tomondan bolalar uchun yashirin bo‘lgan, ularning tevarak-atrof tabiatidan oladigan bilimlarining mazmuniga chuqurroq kirib borishga intilishini ta’minlaydi. Taqqoslash, eslash, qismlarga ajratish, umumlashtirish, o‘zaro bog‘liqliklarni anglay boshlash, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularning rivojlanishini ko‘rishga harakat qilish - bola ijodiy izlanishnning namoyon bo‘lishi, faolligini safarbar qnishdir.

Yuqorida bayon etilgan tasavvurlarni, bilim va tushunchalarini shakllantirish uchun sayr, tajriba, kuzatish, sayr vaqtida o‘yin, bolalar amaliy mehnat faoliyati turlari, badiiy adabiyotlardan foydalaniladi. Ularni bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning umumiyligi rejasiga kiritish va kundalik hayotda o‘tkazish mumkin (buning uchun sayr qilish, kechki soat va mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin).

Sayr vaqtida tarbiyachi Bolalar yoshiga mos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo‘lishi bilan birga ilmiy aniq bo‘lishi kerakligini unutmasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: o‘simlikni yorug‘likka, suvgaga, issiqlikka bo‘lgan ehtiyoji.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-5

Bolalarga beriladigan bilimlar sayrlarda ko‘rgazma asosida berilishi shart. O‘z o‘lkasi tabiat haqida chuqur bilim berish. Tabiatshunoslikning barcha sohalari (botanika, zoologiya, astronomiya) haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi zaruriy sharoitni taqozo etadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan tamoyillar bir-biri bilan bog‘liq holda olib boriladi. Sayrlar vaqtida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik tamoyiliga riosa qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo‘lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo‘lishi zarur. Masalan: Bolalarni mtt yer maydonchalariga sayrga olib chiqilganda - erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigani sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Osmon ko‘m-ko‘k tus oldi biz endi er maydonchasiga ekin ekishimiz mumkin – ish holati bilan tanishtirish orqali ham tabiatning mavsumiy o‘zgarishi bilan, ham mehnatga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo‘ladilar. Ilmiy tamoyil bolalar yoshiga mos bo‘lsagina samarali natija beradi. Bu tamoyillar “Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturidagi tabiat bilan tanishtirish bo‘limida o‘z aksini topgan. Sayrlarda bolalarni bevosita o‘zlariga yaqin bo‘lgan, atroflarini o‘rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlash lozim. Bolalarga avval maktabgacha ta’lim tashkilotidagi daraxtlar so‘ngira o‘rmondagи daraxtlar haqida bilim berish kerak. Demak, biz yaqindan-uzoqqa tomon degan qoidaga riosa qilishimiz zarur. Tarbiyachi bolalarga bilim berishda ularning avvalgi bilimlariga tayanishi kata ahamiyatga ega. Shundagina ular yangi bilimni chuqur o‘zlashtirib oladilar. Bolalarga beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga mos bo‘lsa-y, ular ko‘rgazmasiz bo‘lsa, bolalar yaxshi tushunmaydilar. Shundan kelib chiqib hissiy tajribani bilish va o‘rganish asosida quyidagi ko‘rgazmalilik tamoyiliga asoslaniladi.

Tarbiyachi bolalarni tabiatning predmeti va hodisalari bilan tanishtirishda entsiklopedik tamoyilga amal qilishi lozim. Entsiklopedik so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, barcha fanlarni har tomonlama bilish, bilimlar yigindisi manusida qo‘llaniladi. Sayrlarda tarbiyachi tabiatning barcha ob’ektlariga diqqatini tortar ekan: osmon jismlarini astronomiyadan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan shahar, qishloq, voha, daryo,

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-5

tog‘larning nomlarini geografiyadan; o‘simliklar nomlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari botanikadan bilib boradilar.

Tarbiyachi sayr vaqtida tabiatshunoslik bilimlarini oddiyidan - murakkabga tizimli ravishda yaqindan - ya’ni o‘z o‘lkasi tabiatidan boshlab uzoq ya’ni boshqa o‘lka tabiatini tanish, o‘rganish asosida amalga oshiriladi. O‘z o‘lkasi tabiatini bilan tanishish bevosita bolani tevarak - atrofdagi, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi yer maydonchasidagi o‘simliklar, gullar, ko‘chatlar, daryo va ko‘l nomlari, tog‘lar, yo‘lda uchraydigan maysalar nomi, hayvonot olami; ya’ni duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur. Shu tizim asosida ish tashkil etilsa, o‘zga o‘lkaning tabiatini bilan tanishish yengil, oson kechadi.

#### Foydalanimgan adabiyotlar:

1. A.K.Munavvarov. “Pedagogika”. T., “O’qituvchi”. 1996 yil.
2. A.To’xtaev, A.Xamidov. Ekologiya. T., “O’qituvchi”, 1994 yil.
3. P.G.Samarukova. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T., “O’qituvchi”, 1984yil.
4. M.M.Markovskay. Bolalar bog‘chasida tabiat burchagi. T., “O’qituvchi”, 1991 yil.
5. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T., “O’qituvchi”. 1995 yil.
6. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning uziga xosligi. T., 2000 yil.